

V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI ¹⁾



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 25 813 275,5 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

2024-yilning yanvar-may oylari bilan solishtirilganda, foyda hajmi 18 449 352,1 mln. so'm yoki 39,9 foizga oshdi.

2025- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	mln. so'm	
	<i>Foyda, zarar (+, -)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Jami	25 813 275,5	139,9
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1 280 162,4	86,6
Ishlab chiqaradigan sanoat	24 519 054,6	146,6
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	- 17 437,1	-
Qurilish	5 002,1	2,1m.
Savdo	4 232,5	32,5
Tashish va saqlash	1 621,5	120,6
Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	1 183,5	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	14 391,5	-
Ishga joylashtirish	64,0	24,3
Xavfsizlikni ta'minlash va surishtiruv o'tkazish bo'yicha faoliyat	7,2	2,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	116,7	193,9
Binolarga xizmat ko'rsatish va landshaftni obodonlashtirish bo'yicha faoliyat	105,7	2,7 m.
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 770,9	102,6

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga 24 519 054,6 mln. so'mga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.


korxonalariga 1 280 162,4 mln. soʻmga, koʻchmas mulk bilan operatsiyalar 14 391,5 mln. soʻmga, qurilish 5 002,1 mln. soʻmga, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish 4 770,9 mln. soʻmga toʻgʻri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalariga minus - 17 437,1 mln. soʻmga toʻgʻri keladi.

2025-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (+, -) mln. soʻm</i>	<i>Oʻsish surʼati, % da</i>
Jami	25 813 275,5	172,0
Navoiy sh.	25 919 487,0	141,6
Zarafshon sh.	1 544,6	3,5 m.
Gʻozgʻon sh.	-	-
Karmana t.	125 730,0	97,2
Konimex t.	-1 809,8	-
Qiziltepa t.	5 661,8	93,5
Navbahor t.	14 631,9	101,1
Nurota t.	12 425,7	115,2
Tomdi t.	-269 185,3	-
Uchquduq t.	36,1	105,9
Xatirchi t.	4 753,5	78,8

2025- yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari
(2024- yil yanvar- mayga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shaharda 25 919 487,0 mln. so‘m, Karmana tumanida 125 730,0 mln. so‘m, Navbahor tumanida 14 631,9 mln. so‘m, Nurota tumanida 12 425,7 mln. so‘m, Qiziltepa tumanida 5 661,8 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2025- yilning yanvar-may oylarida 12 ta korxonalar 358 865,7 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi. Zararning asosiy qismi davlat va ho‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2025- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar summasi	
		mln. so‘m	jamiga nisbatan, % da
Jami	12	358 865,7	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	5	66 211,8	18,5
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1	269 685,7	75,1
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni Konditsiyalash	1	19 387,1	5,4
Qurilish	1	43,1	-
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta‘mirlash	2	3 512,5	1,0
Tashish va saqlash	1	25,1	-
Xavfsizlikni ta‘minlash va surishtiruv o‘tkazish bo‘yicha faoliyat	1	0,4	-

2025- yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi, % da</i>	<i>Zarar summasi, mln. so'm</i>
Jami	12	100,0	358 865,7
Navoiy shashri	6	23,7	84 910,4
Zarafshon shashri	1	0,3	965,5
Konimex tumani	2	0,9	3 278,3
Qiziltepa tumani	1	-	25,1
Tomdi tumani	1	75,1	269 685,7
Xatirchi tumani	1	-	0,7

Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati¹⁾



2025-yil 1-iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 17 674 570,6 mln. so'mni tashkil qildi, shundan muddati o'tgan – 13 092,8 mln. so'm yoki jami qarzdorlikning 0,7 foizi.

Muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2024-yil 1-iyuniga nisbatan solishtirganimizda 9,6 foizni, jami debitor qarzdorlik 2024-yil 1-iyuniga nisbatan 42,6 foizni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 12 305 692,9 mln. so'm (viloyat bo'yicha jami debitor qarzdorlikning 69,6 %), Karmana tumani 5 087 694,7 mln. so'm (28,8 %), Xatirchi tumani 118 036,3 mln. so'm (0,7 %), Navbahor tumani 70 104,7 mln. so'm (0,4 %), Konimex tumani 28 234,1 mln. so'm (0,2 %) to'g'ri keldi.

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Tomdi tumani 37 697,7 mln. so‘m (0,2 %) Qiziltepa tumani 13 399,0 mln. so‘m (0,1 foiz), Nurota tumani 8 417,0 mln. so‘m (0,05 %), Zarafshon shahri 5 246,6 mln. so‘m (0,03 %) ga pastligini ko‘rish mumkin.

2025-yil 1-iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln.so‘m	undan:			Muddati o‘tgan qarzdorlikning ulushi, % da
		xaridor va buyurtmachilar	etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar	ichki idoraviy	
Jami	13 092,8	10 958,1	1 193,0	-	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	10 988,6	9 740,1	1 193,0	-	83,9
Tashish va saqlash	2 104,2	1 218,0	-	-	16,1

2025-yil 1-iyun holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 14 488 125,3 mln. so‘m, shundan muddati o‘tgan – 1 030 492,7 mln. so‘m yoki jami kreditor qarzdorlikning 7,1 foizni tashkil etdi.

2025-yil 1-iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln. so‘m	undan:					Muddati o‘tgan qarzdorlikning ulushi, % da
		etkazib beruvchilar va pudratchilarga	olingan avanslar	davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar	ichki idoraviy	mehnatga haq to‘lash	
Jami	1 030 492,7	1 030 492,7	-	-	-	-	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	1 030 492,7	1 030 492,7	-	-	-	-	100,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	-	-	-	-	-	-	-

2025- yil 1- iyun holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 3 186 445,3 mln. soʻmni tashkil qildi.

Hududlar boʻyicha koʻrilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumanida 3 650 326,1 mln. soʻm, Nurota tumanida 2 684,4 mln. soʻm hamda Qiziltepa tumanida – 1 807,7 mln. soʻmga toʻgʻri keldi.

STATISTIKKOʻRSATKICHLARGA IZOHLAR

Debitorlik qarzlari – xaridorlar va buyurtmachilar, shoʻba va qaram xoʻjalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan boʻnaklar, byudjet va davlat maqsadli jamgʻarmalariga soliqlar, yigʻimlar va sugʻurta boʻyicha boʻnak toʻlovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari boʻyicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar boʻyicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari oʻz ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlari – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, shoʻba va qaram xoʻjalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy toʻlovlar boʻyicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, byudjetga toʻlovlar boʻyicha qarz, sugʻurta boʻyicha qarz, davlat maqsadli jamgʻarmalariga toʻlovlar boʻyicha qarz, taʼsischilarga qarzlari, mehnatga haq toʻlash boʻyicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari oʻz ichiga oladi.

Daromad (foyda) soligʻi toʻlagunga qadar foyda (zarar) – korxonalar va tashkilotlarning barcha xoʻjalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yigʻindisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va koʻrsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qoʻshimcha qiymat soligʻi hamda aksiz soligʻini qoʻshgan holda.

Muddati oʻtgan qarzlari – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda soʻndirilmagan qarzning umumiy summasi.